 Всё рушится без дыма и огня,
 А я — в бетоне времени прочном.

Сейчас у всех — как в сериалах:
 Предательства, интриги, драмы.
 Кто-то кому-то строит козни,
 Кто-то тонет в криках мамы.

Романтику сменили алгоритмы,
 Поэзия осталась без пера.
 Любовь — процесс,
 оформленный в цифру,
 А вера — просто галочка с утра.

Век — без корней. Всё зыбко, временно.
 Судьба — не выбор, а контракт.
 Душа — давно уже проблема,
 Он как актер что ушел в антракт

И ты стоишь, как будто на краю
 То ли кричать, то ли уйти в молчанье
 Мне девятнадцать. Я живу в строю,
 Где каждый день — как новое испытанье

**Я ЧЕЛОВЕКОМ РАВНОДУШНЫМ
БЫТЬ ХОЧУ**


Вырвите дар — я не просил его нести
 Не выбирал я эту муку сердечную
 Пусть лучше камень будет в груди,
 Чем живое сердце, у которого я в плену

Я человеком равнодушным быть хочу,
 Пусть мир во мне умрёт, уйдут мелодии
 Чем чувствовать — и снова падать во тьму
 Я выберу пустоту — без боли, без истории

Я человеком равнодушным быть хочу,
 Чтоб в душу мне никто не мог войти,
 Но я опять в своих же слёзах тону
 И равнодушья мне не обрести.



*«Поэзию любят красивые люди,
 Поэзия делает землю красивой»*



ANDIJONLIK SHOIRLAR IJODIDAN



Munavvara TILLABOEVA

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining a'zosi,
"Milliy iftixor" ko'krak nishoni sohibasi

MIRZO BOBUR O'YLARI

Turnalar, hoy turnalar, baland uchgan turnalar,
Uchib o'tdingizmi, Andijonim ustidan?
Musofirlikni totgan kishi doim kun sanar,
Yurt sog'inchi ufurar, uning bo'yi-bastidan.

Johil beklar dastidan alamzada xalqimning,
Yuzlarida ne ma'no, ko'rib bunda keldingiz.
Avlodlari azaldan o'zi shoir qalbining,
Yuragida jo'sh urgan orzularin bildingiz.

Hofizlari xonishda eslagandir o'g'lini,
Vodiy bo'ylab taralgach qo'shiq, baytu navosi.
Bog'lar bezab turganmi uning o'ngu so'lini,
Hanuz rohatbaxshmikan, Andijonim havosi?

Aqlingizni oldimi, ishkomb to'la uzumlar,
"Qurey-qurey"ingizdan jonlar tushar larzaga.
Yurtingizni qo'msabsiz, bizga bersin to'zimlar,
Qanotim bo'lsa edi, qolmas edim lahzaga.

Turnalar, hoy turnalar, baland uchgan turnalar,
Mening otam qabrini tavof etmadingizmi?
Yagona bir armondan shoir qalbi tinalar,
Farzanding olisda, deb savob etmadingizmi?

Kelib erdim bul tomon o'z ixtiyorim birla,
Qaytmoqlikka iloj yo'q, ixtiyorim oldilar.
Falakmi, non-nasiba, netayin bir umrga,
Andijonim yo'liga ko'zni mushtoq qildilar.

KUZ QO'SHIG'I

Kuzning qo'shig'ini ko'rdim bog'larda,
Yaproqlar bir-birla rang talashlarlar.
Sokinlik hukmron so'lu sog'larda,
Ko'rk berib zaminga xo'p yarashlarlar.

Dehqonning g'ayrati o'n chandon oshgan,
Chayir qo'llari-la, rizq-ro'z yaratmish.
"Oq oltin" - paxtamiz chanoqdan toshgan,
Olam uzra muattar bo'y taratmish.

Yoqadi ko'ngilga yomg'irli osmon,
Momoqaldiroq gumbirlab havo aynisa.
Momo yerim doim bo'lsin-da, omon,
Roziman shundayin mehnat qaynasa.



* * *

Sham'i husnin muhtalosi bo'ldim, ul yor bilmadi,
Yo'llarida bir gadosi bo'ldim, dildor bilmadi.

Bir nazar qilgaymi debon termulardim damba-dam,
Oshig'ining muddaosi neligin yor bilmadi.

Qo'ymadi ko'zlar boqib pinhon nigohin izlashin,
Ul qaro ko'zning adosi bo'ldim nisor bilmadi.

Solmagay erdi boshimga bu sitamlar jabrini,
Ikki jahon ovarasi bo'ldim, xumor bilmadi.

Ko'p muruvvat kutma debon ta'na qilmang do'stlar,
Notavon dil sadporasi bo'ldim bir bor bilmadi.



MUSOXON ABDULHAEV,
Andijon shahridagi “Yog‘du” adabiy
uyushmasining rahbari, shoir

YORNING SALOMI

Ayt menga salom lafzini, darmon bo‘la qolsin,
Ag‘yorga bu so‘z umrida armon bo‘la qolsin.

Tark etma salomingni go‘zal ayni hayotda,
«Mushfiq» so‘zining isboti har on bo‘la qolsin.

La‘lingda bolu, chehrada gul, fazli kamolga,
Mastura ibo ibрати sarbon bo‘la qolsin.

Payvasta bo‘lib qosh ila bog‘lansa bu kokil,
Zulfiing o‘rilib, tebrana karvon bo‘la qolsin.

Haddim unutib, o‘tsa xato, asta qarab qo‘y,
Ogoh bo‘layin, shu nigoh farmon bo‘la qolsin.

Har qancha sabr etgali tayyor turadirman,
Yor senga sabot qiymati arzon bo‘la qolsin.

Muso dilining rishtasi bog‘landi o‘zingga,
Kim raxna solar, o‘rtada sarson bo‘la qolsin.

BORMADIM

Kelmadingiz deb so‘rabsan, or uchun ham bormadim,
Odamiylikda g‘ururim bor uchun ham bormadim.

Kimga bayram, kimga motam bu tavallud kunlaring,
Senga keng u davra menga tor uchun ham bormadim.

Har nigohing yangi olam, bir umr ma‘no edi,
Endi bilsam o‘zga kimdir zor uchun ham bormadim.

Gulshaningda o‘stiray deb gullar eksam, holbuki,
G‘uncha sevgim ochmayin yuz xor uchun ham bormadim.

Borganimda sochlaringga tushsa ko‘zlar, o‘ldirar,
Chunki zulfiing endi menga dor uchun ham bormadim.

Navbahor kelgan kabi sen shodonsan-u, oh, men uchun,
Qahraton qish yo‘llarimda qor uchun ham bormadim.

Nogahon tole’ kulib bir nozanin Musoga ham,
Roz etar bo‘lsa agar ul yor uchun ham bormadim.



OHU

Sening qalbing yaromi, ohu,
Xuddi mening yuragim kabi?
Sochmadimi keng dunyo yog'du,
Og'irmikan ochun talabi?

Ezilasan bo'ridan qochib,
Mumkinmikan ulardan ketmoq?
Kim kutadi bag'rini ochib,
Bormi o'zi chin erkka yetmoq?

Hatto suving icha olmaysan,
O't-o'lanlar kutar mung'ayib.
Yig'lab-yig'lab sira tolmysan,
Ketarmikin shoqol sog'ayib...

Mening kabi yuragingda dard,
Dod demoqqa yetmas majoling.
Yuqtirmayin deysanu bir gard,
Changdan qaro nurli jamoling.

Ohuginam, olam ishi shu -
Sen qochasan ortingda yovlar.
Nahot dunyo shundaymi mangu,
Yuvoshlarni makkorlar ovlar...

Kel bag'ringa, yelkamga bosh qo'y,
Mayli yig'la, bo'shat ko'nglingni.
Suysang faqat yaxshilarni suy,
Kaftimga tut yumshoq qo'lingni.

Bir kun kelar yovlar etar bas,
Afsus chekar qilmishlaridan.
Ungacha sen hech yolg'iz emas,
Men bormanku, voz kech baridan.

Mening kabi yaromu qalbing,
Ohu?



Erkinjon BO'STONIY

SHOIR IQRORI

Yeseninni o'qib...

Haqsizlikdan yomon tolsam,
Qalbim bilan yolg'iz qolsam,
Ilhom so'zin tilga olsam,
She'r yozaman yaproqlarga.

Adolatni topolmasam,
Ko'z yoshlarim yopolmasam,
Yurak bilan ko'rib baham,
She'r yozaman yaproqlarga.

Ishonganim tark etganda,
Tuhmat tig'i ko'p botganda,
Alam o'qin xo'p otganda,
She'r yozaman yaproqlarga.

Qolib ketsam aro yo'lda,
Bosh yorilsa va yo do'lda,
Qog'oz, qalam yig'lab qo'lda,
She'r yozaman yaproqlarga.

Olam to'lar titroqlarga...
Yoshlar tomib yanoqlarga...
Barham berib qiynoqlarga...
Mehrdan dil qaynoqlarga...
She'r yozaman...
She'r!



Ikromjon ASLIY-ANDIJONIY,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
a'zosi, shoir va adib.

“YANGI DEVON”IMDAN KO‘CHIRDIM...

Jonimni yoqma, barno, barnoliging pesh qilib,
Olisdan oqma aslo, daryoliging pesh qilib.

Tohir kechirgan kunni boshimga solma zinhor,
Yon bermagin ag'yora, Zuhroliging pesh qilib.

So'z boshlasam qoq beldan kesib qo'yma dil rozim,
Muloqotda toliba – zukkoliging pesh qilib.

Mustahkamdir irodam, lek sindirma sinovda,
Quruq so'zda jar solma, oshnoliging pesh qilib.

Toq etmagil toqatim, ming noz-istig'no birlan,
Malohatda mumtozu tanholiging pesh qilib.

Ilinjlarim izmingda, yo'llaringga mushtoqman,
O'tinchim o'tga otma, a'loliging pesh qilib.

Gulday qizga Ikromjon, ming o'lchab bir so'ylagin,
Har so'z dema ishq ichra, donoliging pesh qilib!

* * *

Ajab, ul Gul so'zu ahdu vafolarga inonmaydur,
Jamoliga baho bersam, baholarga inonmaydur.

Ado bo'ldi necha oshiq, ado aylab ki ishq rasmin,
Muhabbat bobida yongan adolarga inonmaydur.

O'zimni bek, Otabek, deb, Kumushga mengzasam husnin,
Tagi puch, deb bu xil ta'rif, sanolarga inonmaydur.

-Yorug' yulduzni marjondek senga keltirmog'im maqsad, -
Desam, kelmaydi qo'ldan, deb, saxolarga inonmaydur.

-O'zi qilgan xato bois, birov aslo aybdormas, -
Debon ishq bobida baxti qarolarga inonmaydur.

Qo'shib ismin qo'shiqlarga yurakdan kuylasam har tong,
-Azaldan bor bu so'z deb, dil sadolarga inonmaydur.

Ey Ikromjon, sadoqatda mukammal bo'l, neki bo'lsa,
Gulandomlar quruq da'vo, vafolarga inonmaydur.

* * *

Kutubxona eshigi tunda ham yopilmaydir,
Bunaqasi ehtimol, Rimda ham topilmaydir.

Navoiy, Boburlarning, sohib tafakkurlarning,
Huzuriga oshiqib, hay-hay, kimlar kelmaydir?!

Dilafruz, Mehriqulning fursatlari hisoblik,
To'xtamaydir, tinmaydir, tin neligin bilmaydir.

Kitob bilan tirikmiz, oftob bilan sherikmiz,
Kitobsiz qolgan millat istiqboli kulmaydir.

Hikmatlarni etib sharh, charchamaydir qalamim,
Hikmat guldir anvoyi, ming yilda ham so'lmaydir.

Shu noyob hikmatlarni kim bo'lsa talabgori,
So'zi yerda qolmaydir, sazasi hech o'lmaydir.

Ikromjon ikkilanmay talpinadir hamisha,
Kutubxona eshigi tunda ham yopilmaydir.



To'liqin Siddiq

O'zbekiston jurnalistlar uyushmasi a'zosi,
"Eng yaxshi jurnalist" respublika ko'rik-tanlovi g'olibi.

"Omadbek print number one" mas'uliyati cheklangan jamiyati nashriyotida jurnalist A'zamjon Qodirovning "Hayot saboqlari" avtobiografik qissasi nashrdan chiqdi. Ushbu kitob muallifi mening kasbdoshim. U meni o'zining ustozini deb biladi. Negaligini o'zim ham yaxshi bilmayman. Bir binoda – u rus tilida nashr etiladigan "Andijanskaya pravda", men esa o'zbekcha "Andijonnoma" gazetalari tahririyatlarida ko'p yillar birga ishladik. Balkim mening yoshim undan kattaligi, balki u Rossiyada o'qib, ishlab bizning o'zbekona urf-odatlarimizni deyarli unutib yuborgani uchun har qadamida dakki beraverganim uchundir. Balki meni boshqalarga o'xshamay yozishim, dolzarb masalalarni ko'tarishga jur'at etishim tufaylidir. U hatto bir qator tanqidiy maqolalarim uchun nohaq jazolanib, haqiqatga sud qaroridan

“HAYOT SABOQLARI”

Аннотация: Автобиографическая повесть Азамжона Кодирова «Уроки жизни» издана издательством «Omadbek print number one». В книге искренне отражен его трудный, но поучительный жизненный путь, журналистская деятельность и поиск себя в разных сферах. Произведение представляет собой ценное свидетельство эпохи и служит напоминанием о силе терпения, стойкости и стремления к знаниям.

keyin erishganimni havas qilardi. Shu zail zo'r tanqidiy maqolalar yozib, u ham elga tanildi.

Katta tennis bilan shug'illana boshlaganimda meni ortimdan kortga borib, sportning bu turiga jiddiy mehr qo'ydi, farzandlari Sherzod va Ravshanbeklarni mohir tennischilar etib tarbiyaladi.

Aslini olganda men A'zamjondan ko'p narsalarni o'rganishim kerak ekan. Viloyatda e'tiborli rahbar oilasida tug'ilganim, kenja farzand bo'lganim uchun o'zimni, moddiy ta'minotim haqida o'ylamasdim. A'zam Qodirov esa menga nisbatan ko'p bolali, oddiy ishchilar oilasida ulg'aygan. O'shdagi umumta'lim maktabidan keyin aloqa tarmog'ida montyor bo'lib ishlab, harbiy xizmatga chaqirildi. So'ng deyarli ikki yil sud idorasida ish yurituvchi lavozimida ishlab, o'qish kerakligiga amin

bo'ldi va Sverdlovsk shahriga o'qishga ketgan. Yuridik institutga kirish uchun uch yil harakat qilib, imtihonlardan o'ta olmay Ural Og'ir mashinasozlik zavodida ishlagan. Zavodning o'z gazeta va radio tahririyatlari bo'lgan. A'zamjon aynan shu gazetaning ishchi muhbiri sifatida, o'zining dastlabki maqola va axborotlarini yoza boshlagan. Gazeta tahririyati unga Ural davlat universitetining jurnalistika fakultetiga yo'llanma berdi. Chuqurroq bilim olish maqsadida u kunduzgi bo'limda o'qishni afzal ko'rdi. Kechalari qorovullik va turar-joylardagi liftlarda mehnat qilish bilan birga kitob o'qidi.

O'qishni 1990-yilda tamomlab Andijonga ishga kelganda shaharda hech kimni tanimas, uy-joyi yo'q edi. "Tojmetall", avvalgi ("Kommunar") zavodi yotoqxonasida yashadi. Bor bisoti bitta velosiped bo'lib, "Andijanskaya pravda" tahririyatida beradigan arziyas maoshga ishlardi. Shahardagi kichik dahadan avval ikki xonalik, keyinroq uch xonalik boshpana sotib oldi, uylandi, bola-chaqalik bo'lib, farzandlarini oyoqqa turg'izdi.

A'zamjon "Andijanskaya pravda" tahririyatidagi faoliyatini to'xtatmay dastlab O'zbekiston milliy axborot agentligining Andijon viloyati bo'yicha muhbiri, keyinroq O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi gazetasining "XXI-ASR" Andijon viloyati bo'yicha o'z muhbiri bo'lib ham ishladi. U tadbirkor, ishbilarmon, fermer va hunarmandlar faoliyatini yoritib, tajribasi yanada ortdi. Benuqson va namunali mehnati uchun viloyat hokimligining faxriy yorliq va tashakkurnomalari bilan taqdirlandi. "Eng ulug', eng aziz" ko'rik-tanloving respublika bosqichi sovrindori bo'ldi. U ko'p davralarda: "Agar Andijonda To'lqin aka Siddiqov bilan yaqindan tanishmagan bo'lganimda bu shaharda qolib ketmagan bo'lar edim" deydi.

Ikki g'ildirakli velosiped dastlab eski "Zaporojes", keyin "Tiko"ga aylandi. Bugun u zamonaviy "Kobalt" avtomobilida yuradi. Pensiyaga chiqqanda zo'riqib mehnat qilgani o'zini ko'rsatdi. Yuragini operatsiya qildirdi. Doim yugurib-yelib yuradigan A'zamjon bir oz tindi. Boshidan o'tganlarni kitob qilishga

kirishdi. Rus tilida qalam tebratgan shogirdim, o'zbekcha yozolmasa kerak deb o'ylagandim. Yanglishkan ekanman. U o'zbek tilida qiziqarli avtobiografik qissa yozishni ham uddaladi.

A'zamjonni kasbi jurnalist, lekin u hayotda turli xil ishlarga astoydil qo'l urgan. Jalaquduq tumanidagi Teshiktosh hududidan bir gektar yer olib, sholi ekan. Bechora o'zi yakka keng dalada tunu-kun mehnat qilib, juda yaxshi bo'lmasada hosil olgan. O'rta maktabda o'qituvchi bo'lib ishlashga to'g'ri kelgan. Qirq yoshida payvandchilarga shogird tushib, bu kasbni ham ozmi-ko'pmi uddalagan. Moskvaga kelib taksi haydovchisi bo'lib ishladi. Xullas hayotida doim izlanishda bo'ldi, tinib-tinchimadi. Bu gaplar aytishga oson. U qancha qiyinchilik, mashaqqatlarni boshidan kechirmadi deysiz. Misol tariqasida Qirg'izistonning Issiq ko'ldagi dam olish hududida boshidan kechirgan qiyinchiliklarni e'tirof etish mumkin. Bu yerga u hamkasbining yolg'on va'dasiga ishonib kelgan. "Shunday og'ir vaziyatda birortasidan qarz olmay, o'g'irlik qilmay chiqib ketkanimga o'zim ham qoyil qoldim" deb yozadi u. Mana shunday lahzalar tufayli uning avtobiografik qissasi juda qiziqarli.

Dengiz ostida turli xil toshlar juda ko'p. Ularning orasidan qattiq bosimda qolganlarigina javohirga aylanar ekan. Qolganlari toshligicha qolaverar ekan. A'zam Qodirovni hayotidagi qiyinchiliklar ana shunday kuchli bosim bo'lib, uni charxladi, tobladi.


Muallif hayotidagi yaxshi-yomonlarni qanday bo'lsa shunday, yap-yalang'och tasvirlagan. Kitob kamchilik va xatolardan xoli emas. Shunga qaramay sobiq SSSR va O'zbekistonning mustaqillika o'tish davrida yashagan, hayoti bir tekisda o'tmagan insonning umr yo'li sifatida o'z qimmatiga ega. ■



ПАТРИОТЫ НАЦИИ: РЕПРЕССИРОВАННЫЙ ДВАЖДЫ



Клара Дархоновна ЗАХИРОВА,
директор школы №24, город Андижан



Аннотасија: Mazkur matn jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri, o'zbek ziyolisi va ma'rifatchisi Ashurali Zohiriy hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan. U 1885-yilda Farg'ona viloyati, hozirgi O'zbekiston tumani hududida tug'ilgan. Zohiriy yangi usul maktablari asoschilaridan bo'lib, ta'lim tizimida «Yangi uslub» metodikasini joriy etgan, o'zbek tilining ilk darsliklari va imlo qo'llanmasini yaratgan. U o'z faoliyati davomida «Sadoi Farg'ona» gazetasini tashkil etishda ishtirok etib, milliy matbuotning shakllanishiga katta hissa qo'shgan. Shuningdek, o'zbek adabiyoti, folklor va lug'atshunoslik sohasida qimmatli tadqiqotlar olib borgan, Navoi, Fuzuliy va Forobiy ijodiga oid ilmiy maqolalar yozgan.

Asar jadid ma'rifatchilarining hayoti, maqsad va intilishlarini yoritib, yosh avlodni sabr-toqat, ilm va ma'rifat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Репрессия - это явление было самым мрачным периодом в жизни нашего государства. Им были подвергнуты и джадиды – просветители Востока. «Высочайший интеллект и мудрость, воля и стойкость наших предков-просветителей всегда будут для нас ярким примером в воспитании детей гармонично развитыми личностями» -так заявил во время встречи с избирателями Ферганы 28 сентября 2021 года Ш.М. Мирзиёев. Он дал указания организации широкой пропаганды их взглядов, их вклада, их идей и

устремлений.

Один из этой плеяды мой дед – Ашурали Зохири, яркий представитель интеллигенции Узбекистана .

Он родом из Коканда, родился в 1885 году в кишлаке Ойим нынешнего Узбекистанского района Ферганской области в семье середника – дехканина Мухаммадзохира – ота.

В семье придавали большое значение образованию, поэтому Ашурали Зохири учился в медресе Мухаммадалихон города Коканда, затем продолжил образование



На фото: Ашурали Зохири (1885-1937)

в старометодной школе. По окончании он переходит на обучение в Новометодную, в которой впоследствии и преподавал. Самостоятельно изучал и хорошо владел несколькими языками – фарси, арабским, татарским, русским, азербайджанским. Кстати, в русско – туземной школе преподавал русский язык и литературу. Преподавание в школах он вел по собственной авторской методике под названием «Новый стиль», в основу которой им был положен опыт классической узбекской и восточной литературы.

В начале прошлого века набирает силу движение за реформу образования, известное как Новый метод, лидерами которого были Мунаввар Кари в Ташкенте, Махмуд Бехбудий в Самарканде, Садриддин Айни в Бухаре и Ашурали Зохири в Коканде. Именно они способствовали развитию образования, организации просвещения в первые годы Советской власти в Узбекистане. В то

время важной задачей было обновление мусульманского общества через образование, науку и просвещение. Ими разрабатывались новые методы обучения, менялись учебные программы с тем, чтобы продвигать светское обучение и широкое просвещение масс.

Понимая, что без печати нет возможности оказать широкое просвещение, он основал частное издательство «Гайрат», в котором публикует для широкого круга населения произведения Алишера Навои «Мухокамат – ул лугатайн» и «Вакхия», а также «Бобурнома» Захириддина Бабура.

Сегодня в семейном архиве хранится множество документов, печатных источников, которые подтверждают насколько он был увлечен идеей просвещения своего народа,

Объединив вокруг себя передовых представителей просвещения, вместе открывают несколько школ. В 1912 году прослышав о молодом казанском ученом-историке Ахметзаки Валиди, едет в Казань вместе с группой единомышленников. А через год сам Ахметзаки Валиди по заданию географического общества приезжает в Ферганскую долину и проводит географические, этнографические, лингвистические исследования. Гость проживает у Ашурали Зохири. Общение с Валиди и их жаркие дискуссии сыграли важную роль в реализации целей и задач джадидизма и становления Зохири как ученого.



С тем, чтобы донести до масс знания, он начинает работать в газетах «Садои Фергана», «Фергана», которые сыграли решающую роль в становлении национальной печати Узбекистана. Практически именно Обиджон Махмқдов, Хамза, Чулпон и Зохири стали основателями газеты «Садои Фергана» (1914 г.) и становления национальной печати. Работа в газете укрепила их дружбу, сблизила их позиции по пропаганде просвещения, призыва изучения языков и в первую очередь родного – узбекского. Именно Ашурали Зохири создал впервые учебник узбекского языка. А в 1916 году вышел его учебник «Имло» («Орфография») в соавторстве с Сериком Окоевым, Учебник был издан в Казани и впервые обучаемые получили правила узбекского языка.

Ашурали Зохири увлекается и преподаванием.



Когда по инициативе Ашурали-домла в Коканде была основана школа нового типа «Дорил муаллимин», он становится ее сотрудником. Позже эта школа слилась со школой второй ступени города Ферганы и именно на их базе создается Кокандский педагогический техникум, в котором Ашурали Зохири учительствует до 1926 года. С его подачи при техникуме организуются и курсы ликбеза, где он также преподавал.

Параллельно с педагогической, публицистической деятельностью ведет и научную работу, систематизирует и готовит к изданию

собранный до того материал фольклорно-этнографического содержания. В 1926 году в соавторстве с Абдулхамидом Чулпаном составил и издал учебник «Адабиёт парчалари» («Литературные отрывки»). Два года спустя подготовил русско-узбекский словарь, выпущенный в виде отдельной книги, где автор детализирует лексикографию и терминологию узбекского языка. Написал он и ряд научных статей о творчестве Фароби, Навои, Физули.

Ашурали Зохири считал своим священным долгом повышение культуры своего народа, расширение его кругозора и знакомил их с иностранной литературой, литературоведческими материалами собственного перевода на узбекский язык. По признанию властей и ученых, он был настоящим интеллигентом – просветителем, убежденным сторонником просвещения, видел в ученье средство искоренения невежества. Только образованный народ, считал Зохири, достоин свободы. К сожалению, просветитель, как и многие его единомышленники, был необоснованно репрессирован.


В 1930 году в дом по адресу город Коканд, улица Худжанд, 478 нагрянули сотрудники ОГПУ. Учинили тщательный обыск. По воспоминаниям младшего сына просветителя Дархон-ота, в том же году отца осудили и сослали на строительство Беломорканала, вымощенного трупами политзаключенных. Хотя отбыв назначенный срок, Зохирий вернулся домой живым, два года спустя репрессивная система вновь затянула джадида в свои жернова. По сфабрикованному делу его приговорили уже к высшей мере наказания, которое было приведено в исполнение 28 декабря 1937 года...

Но народ помнит его. Так, по телеканалу «O'zbekiston tarixi» была показана передача под рубрикой «Патриоты нации», посвященная моему дедушке, о нем писали в газетах.

Мы, его наследники, всегда испытываем гордость за дедушку, за его вклад в дело просвещения народа. Более того, я и моя дочь,

тоже выбрали такую же стезю – просвещение и образование народа.

Мы, его потомки, живущие в Коканде, Андижане, бережно храним память о нем и каждый из нас старается стать достойным продолжателем дела его жизни и достойно нести свою службу на благо родины. ■



BIRINCHI O‘ZBEK JADID DIPLOMATI



Odina RASULOVA

Andijon viloyati axborot-kutubxona markazi
Huquqiy-axborotlar sektori mudiri

***Аннотация:** Статья посвящена освещению общественно-политической и дипломатической деятельности известного государственного и общественного деятеля, опытного дипломата Иномжана Хидиралиева. Автор статьи подробно описывает его жизнь и начало деятельности, включая его представительство на съезде народов Востока в Баку, а также его участие в составе советской делегации в Лондонской конференции и его деятельность в должности народного комиссара земледелия.*

Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan siyosiy izchillik natijasida tariximizning o‘rganilmagan, yoxud to‘g‘ri aytganda, ta‘qiqlangan varaqlari mana endigina kitobxonlar uchun yetib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek xalqi tarixi, jumladan, o‘z davrida nohaqdan qoralanib, el-yurt xotirasidan o‘chirib tashlangan davlat va jamoat arboblارimiz haqidagi purma‘no

fikr, g‘oya, amaliy tadbirlari tufayli tariximizga munosabat ijobiy tomonga o‘zgardi. Tariximizni qanday bo‘lsa shundayligicha xolisona bayon etish to‘g‘risida ilgari surilayotgan kontseptual, metodologik ko‘rsatma va maslahatlar tufayli buzilgan, soxtalashtirilgan voqealarni o‘z joyiga qo‘yish borasida katta ko‘lamda ishlar olib borilmoqda.

Mustaqillik tufayli ko‘plab olimlar, tadqiqotchilar tomonidan bu sahifalarni o‘rganishlari va

izlanishlari natijasida tariximizni yangi sahifalarini o'qish baxtiga muyassar bo'lmoqdamiz. Ana shunday sahifalardan biri rus tuzumining barcha azob-uqubatlarini boshdan kechirib, el-yurt taqdiri uchun jon kuydirib, zulm kishanlarini parchalash uchun, kelajakda mustaqil hayot, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy kechirish ilinjida kurash olib borib, shu ezgu maqsad yo'lida qurbon bo'lgan milliy davlat va jamoat arboblardan biri Inomjon Xidraliyevdir. Bu siymoning hayot yo'li uzoq vaqtlar o'rganilmay keldi. Sababi, bolshevizm tomonidan unga nisbatan o'ng og'machi (o'ng opportunist) degan tamg'a yopishtirilgan edi.

Ma'lumki, qatag'on va turg'unlik yillarida chop etilgan tariximizga doir ko'plab asarlarda, darsliklarda, hatto qomuslarimiz, risolalarimiz, maqolalarimizda u yoki bu voqealar, mavzular, siyosiy arboblari, tarixiy shaxslar tarixi bir yoqlama bayon etilib kelindi, ularning ko'plari nohaq qoralandi. Inomjon Xidraliyev sovet davrida Respublikamiz va xalqimiz manfaatlariga mos keladigan siyosat yuritishga intilgan ilg'or fikrli rahbar kadr sifatida shafqatsiz qatag'on qilindi, fojiali halok bo'lganidan so'ng uning xalq, partiya oldida qilgan beqiyos xizmatlari unutildi, uning tariximizda tutgan o'rni va roli haqida tarixchilarimiz atayin sukut saqlardi. Sovet davridagi kitoblarda u burjua millatchisi, xalq dushmani, aksilinqilobchi sifatida tasvirlanib, xalq dushmani yorlig'ini yopishtirishgan.

1968-yillarda Andijonga, Qo'rg'ontepaga O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining raisi Yodgora Nasriddinova tashrif buyurganida Xidraliyevning qizi, maktab direktori Mahfiratxon opa unga murojaat etadi. Yodgora opa masalaning mohiyatiga to'la tushunib, bu haqida Markazqo'mning birinchi kotibi Sharof Rashidovga axborot beradi. Sharof Rashidov ko'rsatmasi bilan maxsus komissiya tuziladi. Markazqo'm mas'ul xodimi Boltaboy Yusupov Andijonga kelib, Mahfiratxon opadagi hujjat va materiallarni ko'rib, tanishib chiqib, Markazqo'mga tegishli ma'lumot taqdim etgan.

Nihoyat, 1969-yil 15-iyunda O'zbekiston Kompartiyasi markaziy qo'mitasi I.Xidraliyev

masalasini maxsus ko'rib chiqdi, uning nomini abadiylashtirish, u haqida maqolalar, kitoblar nashr etishga qapop qilindi. Shu paytdan Respublika, viloyatlar, Moskvada Xidraliyev to'g'risida maqolalar chiqa boshladi. Ko'chalar, maktablar uning nomi bilan ataladigan bo'ldi, bir necha bor radio, televidenie orqali maxsus eshittirish va ko'rsatuvlar tashkil qilindi.

Inomjon Xidraliyev hayotini yanada chuqurroq o'rganish maqsadida tuzilgan ushbu biobibliografik ko'rsatkich keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan bo'lib, u quyidagi bo'limlardan iborat:

Erta tugagan bolalik;
Qon yig'lagan Andijon;
Ish faoliyati davrlari;
Butun Turkiston oqsoqoli;
Angliya bilan muzokarada;
O'zbekiston xalq komissari;
Fojia shunday yuz bergandi;
Adabiyotlar.

Ushbu qo'llanma orqali o'zbek xalqining sodiq farzandi, O'rta Osiyoda ko'zga ko'ringan davlat va jamoat arbobi Inomjon Xidraliyevning bosib o'tgan mashaqqatli, lekin jasoratga to'la hayot yo'li bilan tanishasiz.

ERTA TUGAGAN BOLALIK ...

Inomjon Xidraliyev 1891-yili Farg'ona viloyati, Namangan uyezdi, Pop volosti, Iskovat qishlog'ida, yersiz kambag'al dehqon oilasida tug'ilgan. O'lkada qaror topgan «sof tipdagi mustamlakachilik», mahalliy boy va amaldorlarning zulm qamchisidan boshi gangigan Xidrali ota ko'plar qatori o'ta og'ir hayot kechirgan. Bir parcha yeri ham uch tillaga sotilgach, uning doimiy tirikchiligi mardikorlik bo'lib qolgandi. U boylar, amaldorlar uylarida turli xil og'ir ishlarni bajarish evaziga qornini to'yg'azishga, oila a'zolarini bir amallab boqishga urinardi. Yosh Inomjon otasining yoniga kirib mardikorlik qilgan.

Yo'qchilik, muhtojlik «ta'mi»ni totgan ota o'zining og'ir qismatini savodsizlikda deb ►

bilib, Inomjonni bir amallab Popda ochilgan rus-tuzem maktabiga o'qishga beradi. Rus-tuzem maktablariga asosan mustamlakachilar, mahalliy boylar, mansabdor shaxslar, o'ziga to'q kishilarning farzandlari qabul qilinardi, ham diniy, ham dunyoviy fanlar o'qitilardi, o'qish rus va o'zbek tillarida olib borilardi. O'shanday maktabda o'qish Inomjonga ham nasib etadi. Aql-zakovatli, xushfe'l, ziyrak, fahm-farosatli Inomjon o'ta qiyinchilik bilan o'qishga kirganini, buning uchun otasi ko'plab amaldorlar xizmatini qilganini bilib, o'qishga mukkasidan ketadi. Tez orada savodi chiqib, ruscha va o'zbekcha yozish va o'qishni bilib oladi, Ammo o'qishga havasi o'ta ortgan bir paytda maktabdan quviladi, 1924-yili o'zining tarjimai holida bu haqda shunday yozgandi: «1905-yil noyabrda bizni o'qitish o'rniga o'z foydasi uchun tomorqasida dehqonchilik bilan shug'ullanishga majbur qilgan muallim ustidan shikoyat qilganim uchun meni maktabdan quvdilar».

Maktabdan haydalgan Inomjon Toshmatboy ismli katta savdogar qo'lida xizmat qila boshlaydi. Oz-moz mablag' to'plagach, 1906-yili Qo'qondagi rus-tuzem maktabida o'qishni davom ettiradi. Bu maktab internat edi. Ta'til damlarida Inomjon Sho'rob ko'mir konida ishchi bo'lib ishlaydi, rus ishchilari bilan yaqindan tanishadi. 1907-yili 16 yoshida o'qishni tamomlaydi. Unda gimnaziya o'qish ishtiyoqi bor edi. Biroq buning uchun mablag' yo'q edi, qolaversa, gimnaziya ham asosan aslzodalar farzandlari qabul qilinardi.



1907-yil yozidan boshlab Inomjon Andijon uezdi, Bozorqo'rg'on rayoni, G'ova qishlog'idagi Stepanov nomli katta rus bog'ida xizmatkorlik qiladi. Undagi qobiliyatni, ruscha va o'zbekcha savodxonlikni, tadbirkorlikni sezgan Stepanov Bozorqo'rg'on hokimi (pristavi) bilan kelishib Inomjonni hokim xizmatkorligiga taklif qiladi. Bozorqo'rg'on hokimi Polyakov ancha o'qimishli, o'zbekchani ham yaxshi biladigan shaxs edi. O'sha vaqtda bolalar o'rtasida chechak kasali keng tarqalgan edi. Inomjon ambulatoriyada ishlab, rayonning G'ova, Chorbog', Arslonbob, Mosi, Seydikum, Qayirma qishloqlarida bo'lib, ko'pdan-ko'p bolalarni chechak kasalidan saqlab qoldi. Ko'p xayrli ishlarga qo'l urdi. Bozorqo'rg'on hokimi kanselyariyasida mirzalik, xat tashuvchilik qildi. So'ngra Jalolobod, Qorasuv, yana Bozorqo'rg'on, O'sh, oxiri Qo'rg'ontepa hokimlarida mirzalik, tilmochlik qilib kun kechirdi. Uning birdan-bir maqsadi taqdiriga qullik muhri bosilgan, mustamlakachilik zulmidan azob chekayotgan yerli aholining haq-huquqi yo'lida halol xizmat qilish, aholining og'irini yengil qilishga biroz bo'lsada hissa qo'shish edi. Bu vazifani o'sha hokim to'ralar idoralarida tilmochlik qilib bajarmoqchi bo'ladi. O'z xalqining rus amaldorlariga kelib aytadigan arz-shikoyatlarini mustamlakachi mansabdorlarga o'girib berish, ruschadan mutlaqo xabari bo'lmagan xalqqa rus to'ralarining ko'rsatmalarini o'zbekcha qilib tushuntirib berish nihoyatda xayrli ish edi. Inomjon Xidiraliyevdek ruscha va o'zbekcha o'qish va yozishni bilgan xat-savodli kishilar u vaqtda juda oz edi, shu bois bundaylar ham mustamlakachi to'ralar, hokimlar, mahalliy boylar ham mahalliy aholi uchun juda kerak edi. Kelgindi hokimlar bilan yerli xalq o'rtasida tilmochlik qilish o'ta mas'uliyatli vazifa edi. Tilmoch, ayni vaqtda, diplomat ham bo'lishi kerak edi. Masalaning ijobiy yoki salbiy hal etilishi ko'p jihatdan tilmochning aqlu farosatiga, odamiyligiga, xalqparvarligiga, diyonatiga bog'liq edi. Biror hojatini chiqarish orzusida kelgan fuqaroning iltijolarini fahmlash va uni hokimga ustalik bilan tushuntirish, masalani

ijobiy hal etishiga ko'maklashish tilmochdan katta mahorat talab etardi. Shunday mas'ul, sharafli ishni bajarib Inomjon el-yurt oldida katta obro' topgan edi.

1917-yilda Rossiyada fevral inqilobi yuz berdi. Podsho taxtdan ag'darildi, 300 yil hukmronlik qilgan Romanovlar sulolasi quladi. Mamlakatda qo'shhokimiyatchilik vujudga keldi. Bir tomonda ishchi va dehqonlarning revolyutsion-demokratik diktaturasi – Sovetlar, ikkinchi tomonda burjuaziya diktaturasi – Muvaqqat hukumat qaror topdi. Hamma joyda Sovetlar tashkil etildi, partiya tashkilotlari yashirin holatdan chiqib, ochiq faoliyat ko'rsata boshladi. Mamlakatda 1917-yil oktyabrida yuz bergan to'ntarishning tub mohiyati va mazmunini Turkistonning mahalliy aholisi birdaniga tushunib yetmagandi. Ko'plar qatori u ham dastavval Petrogradga sodir bo'lgan voqeani tushuna olmagan. 1924-yilda «Pravda» gazetasida chop etilgan maqolasida bu haqda shunday eslagandi: «Paxta vatani uzra, «oq oltin» chamanzorlari va paxtakor qishloqlar uzra halokatli voqealar sharpasi kezib yuribdi: imperialistik urush davom etmoqda, odamlar front ortiga betinim jo'natilib turibdi. O'talar urushga ketyapti, paxtakor rayonlarida non, asbob-uskuna, xomashyo kamayib ketdi. Paxtaga ehtiyoj yo'q, paxtalik buyumlar yerda qoldi...

Hammani ochlik yutib yuboraman deydi, dahshat solib ishsizlik, yalpi qirilish bostirib kelyapti, chor tarafdin tahlkali, hazin, mudhish sadolar eshitaladi. Rossiya podsho bilan kapitalistdan mangu judo bo'ldi. Shuning uchun endi paxtani hech kim sotib olmaydi. Rossiyaga askarlar kerak, to'plar va qurol-aslaha kerak, lekin paxtaning hojati yo'q».

Bu vaqtda I.Xidiraliyev uezdning Sultonobod uchastkasida siyosiy-ijtimoiy faoliyat bilan band bo'lgan. Uchastka qaramog'ida Qo'rg'ontepa, Oyim, Qorasuv, Jalaquduq volostlari bo'lib, ularga volost boshqaruvchilari rahbarlik qilardi. 1917-yil 3-martda Qo'rg'ontepada jamoat xavfsizligi qo'mitasi tashkil etildi. I.Xidiraliyev unga a'zo bo'ldi. Sultonobod uchastkasi

komissari I.Xidiraliyev 7-iyunda Andijon uyezdi ma'muriyatiga 1444-sonli xat yo'llab, volostlar boshqaruvchilarining ma'lumotlari asosida uchastkadagi yirik va mayda xo'jaliklar miqdori haqida ma'lumot bergan. I.Xidiraliyev Qo'rg'ontepa rayoni komissari bo'lib bor-yo'g'i 24 kun xizmat qildi. Gimnaziyaning 6-sinfi darajasida ma'lumotga ega bo'lmagani uchun uyezd qo'mitasi I.Xidiraliyevni komissar qilib tasdiqlashdan bosh tortadi. Shundan so'ng u barcha saylov yo'li bilan xizmat qiladigan lavozimlardan voz kechib, O'sh shahriga keladi. O'shda 1917-yil noyabrida shahar dumasiga a'zo etib saylanadi.

QON YIG'LAGAN ANDIJON

Bu o'rinda Andijon jadidlaridan Haqqul Husanboyev 1929-yil 28-yanvarda Samarqandda O'zbekiston Kompartiyasi markaziy qo'mitasi kotibiga yozgan arizasida Inomjon Xidiraliyev 1917-yil noyabrida Qo'qondagi o'lka musulmonlari IV-qurultoyiga Andijondan vakil bo'lib saylanganligi va Turkiston muxtoriyatini tashkil etilishida faol qatnashganligini ta'kidlab o'tgan. I.Xidiraliyev O'sh shahar dumasida 1918-yil apreliga qadar xizmat qiladi. Kasalligi tufayli bu ishni ham tark etadi. 1919-yil yanvarida sog'aygach Andijon shahriga keladi. Bu vaqtda Andijonning eski shahar qismida kommunist (bolshevik)larning musulmon fraktsiyasi faoliyat yuritardi. 1919-yil 7-fevralda I.Xidiraliyev shu eski shahar partiya tashkiloti tomonidan partiya safiga qabul qilinadi.

1919-yil mayida Andijonga Turkiston Markaziy Ijroqo'mi, Xalq komissarlari Sovetining favqulodda komissiyasi keladi. Bu nufuzli, vakolati katta organga Xalq komissarlari Soveti raisi K.E.Sorokin rais, T.Risqulov, N.Xo'jayev, S.Tursunxo'jayev, H.Husanboevlar a'zo edi. Komissiya tashabbusi bilan Jome' masjididagi katta mitingda inqilobiy qo'mita (revolyutsion komitet) saylandi. Shu paytdan Andijon uyezdida sovetlar hokimiyati siyosatida keskin burilish boshlandi. Hokimiyat organiga ko'plab mahalliy aholi vakillari jalb etiladigan bo'ldi, «bosmachi» guruhlarining sovet hokimiyati ►

tomoniga o'tishi boshlandi. I.Xidiraliyev inqilobiy qo'mita tomonidan musulmonlar armiyasi shtabining kotibi etib tayinlanadi. Iyun oxirida bu shtab bitiriladi.

1919-yil 1-iyulda Andijon uyezd-shahar inqilobiy qo'mitasidagi millatlar bo'yicha bo'limning turksho'basiga mudiretib tayinlanadi. 1919-yil sentyabrda Andijon ikki hafta davomida qamal holatida qoladi. Madaminbek, general Muxanov, polkovnik Monstrov, Xolxo'ja, Parpibek, Mahkamhojilar boshliq 20 ming kishilik qurollangan qo'shin Andijonga hujum qiladi. Jalolobodni 7-sentabrda, O'shni 8-sentabrda taslim qilgach, birlashgan kuch endi Andijonda sovet hokimiyatini ag'darish, so'ngra butun Farg'onada, pirovardida Turkistonda g'alabaga erishish maqsadida jang boshlaydi. Eski shahar kommunistlaridan tuzilgan jangovar partiya drujinasining jangchisi sifatida I.Xidiraliyev shahar mudofaasida qatnashadi. Andijon mudofaasi haqida keyinchalik shunday eslagandi: «Oq gvardiyachi-bosmachilar qo'zg'oloni ikki hafta davomida Andijonni qamalda ushlab turgan vaqtda kunu-tun jangovar uchastkalarda turib jang qilishga to'g'ri keldi. Men bir necha bor janglarda qatnashdim, hujumda ishtirok etdim, bizning 140 nafar qizil gvardiyachilarimiz 800 kishidan iborat oqlar otryadini oxirigacha majaqlab tashladilar, shtabni, 1 ta to'pni, 2 ta pulemyotni, bombomyotni, 50 ta miltiqni, 13 yashik o'q-dorini va 180 ta otni qo'lga kiritdilar. Bu vaqt sovet hokimiyati uchun eng xavfli edi, dushman kuchlari bizning kuchlarimizdan ancha ustun, siyosiy ahvol o'ta darajada mushkul edi».

1919-yil 24-dekabrda Andijon uyezd-shahar partiya komitetining V-konferensiyasi bo'lib, uning ishida Butunrossiya markaziy Ijroiya komiteti va Xalq komissarlari sovetining Turkiston ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyasi (Turkkomissiya) a'zosi F.I.Goloshchekin ishtirok etadi, nutq so'zlaydi, Ijroiya komiteti va Xalq komissarlari sovetining Turkiston kommunistlariga yo'llagan xatini o'qib beradi. Konferentsiya I.Xidiraliyevni uyezd-shahar partiya komitetining mas'ul kotibi etib saylaydi.

Bu vaqtda uyezdning Sultonobod, Qo'rg'ontepa, Oyim, Jalaquduq kabi joylarida ahvol nihoyatda og'ir edi. Qizil Armiya qismlari, ularning siyosiy bo'limlari, har bir rayonda tashkil topgan harbiy garnizonlar o'z faoliyatida bir qator ijobiy ishlar bilan bir qatorda mahalliy aholining milliy, diniy hissiyotlari bilan kelishmasdan, milliy kadrlar fikri bilan hisoblashmasdan jiddiy buzg'unchilik ishlarini ham qilayotgan edilar. Bundan norozi bo'lganlar sovet hokimiyatiga qarshi kurash olib boradilar.

Bunga o'xshash salbiy, xavfli holatlarga mahalliy hukumat va uning rahbarlari kurash olib borishlari, aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borishlari zarur edi. Shu maqsadda I.Xidiraliyev uyezdning eng notinch rayoni – Sultonobodga yuboriladi. Sultonobod rayon markazi sifatida Xonobod, Dardoq, Oyim, Qorasuv, Qo'rg'ontepa kabi qishloqlarni birlashtirgan edi. 1920-yil 15-fevraldan I.Xidiraliyev rayon inqilobiy qo'mitasining hamda rayon partiya komitetining raisi sifatida ish boshlaydi. Tarkibida 130 ta qishloq bo'lgan bu rayonda sovetlar hokimiyati deyarli yo'q darajada edi, hamma joyda Holxo'ja, Parpibek, Davron, Do'lan hoji kabi qo'rboshilar va ularning yigitlari hukmronlik qilardi. 1920-yil 10-martda uyezdga yo'llagan ma'ruzanomasida I.Xidiraliyev volostlarda mutlaqo hokimiyat yo'qligi, kambag'allar, chorikorlar, ishchilar uyushtirilmagani, Oyimda oq gvardiyachilar sovet hokimiyati tomonida turib ish ko'rayotgan o'nlab ishchilarni so'yib tashlaganidan so'ng odamlar tashkilot bo'lib uyushish u yoqda tursin, hatto so'z aytishdan ham qo'rqayotganligini yozgandi. 19-mart sanasida I.Xidiraliyev raisligida Sultonobod rayon inqilobiy qo'mitasi yig'ilishi bo'lib, unda rayondagi ahvol chuqur tahlil qilinadi. Shunday og'ir sharoitda I.Xidiraliyev butun rayonga rahbarlik qildi, qo'rboshilar bilan behuda qon to'kilmasligi yuzasidan muzokaralar olib bordi, mavjud hukumat organlarini boshqardi, joylarda revkomlar, partiya yacheykalari, dehqonlar uyushmalarini tuzdi, mehnatkashlar yig'inlarini o'tkazib, xalqqa vaziyatni tushuntirish bilan shug'ullandi.

BUTUN TURKISTON OQSOQOLI

1922-yilning 25-sentabrida RKP (b) Markaz-qo'mning Turkiston byurosi qo'pol xatoga yo'l qo'yganlari uchun N.To'raqulov, Q.Otaboyev, A.Rahimboyevlarni respublika partiya va sovet organlari rahbarlik lavozimlaridan bo'shatdi. Shu qapop bilan Xidiraliyev Turkiston ASSR Markaziy ijroiya qo'mitasi prezidiumining raisi qilib tayinlandi. Sovetlarning XI-s'ezdida esa saylandi. By lavozimda 1924-yilning 8-yanvarigacha xizmat qildi. Bu lavozimda ham qator ibratli ishlar qildi. butun O'rta Osiyoga, Ittifoqqa keng tanildi.

Moskva, 1922-yil 27-dekabr. Soyuzlar uyi. Butunrossiya Sovetlarining X-s'ezdiga kelgan vakillar bilan to'la. Prezidiumda M.I.Kalinin, I.V.Stalin, V.K.Kuybishev, G.K.Orjonikidze, M.V.Frunze, K.E.Voroshilov, F.E.Dzerjinskiy va boshqalar bor. Ular qatorida endigina 31 bahorni qarshilagan, barvasta bo'yli, oq-sariqdan kelgan, soqol va mo'ylovli, ko'zlari ko'kishdan kelgan, chap qo'lida qo'ltiqta yoq ushlagan Inomjon Xidiraliyev ham o'ziga xos sharqona sukut saqlab o'tiribdi. U hamma kabi «Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi tuzish» masalasida RKP (b) Markazqo'mining bosh sekretari, millatlar ishi bo'yicha xalq komissari I.V.Stalinning ma'ruzasini tinglamoqda.

I.V.Stalin Ukraina, Belorussiya va RSFSR delegatsiyasi bilan birgalikda SSSR tuzish haqidagi Qo'shma shartnoma va deklaratsiya loyihasini ishlab chiqish uchun M.I.Kalinin, A.S.Enukidze, YA. E.Rudzutak, D.I.Kurskiy, A.D.Iyurupa, G.YA.Sokolnikov, turkistonlik A.Rahimboev, I.Xidiraliyev va boshqalardan iborat RSFSR komissiyasi tarkibini o'qib berdi.

Bir ovozdan tasdiqlangan bu komissiya Ukraina, Belorussiya va Zakavkazy vakillari S.M. Kirov, G.K.Orjonikidze, F.E.Dzerjinskiy, M.V.Frunze va boshqalar bilan hamkorlikda Deklaratsiya hamda shartnoma loyihasini ishlab chiqdi.



Moskva. 1924-yil.

Ushbu suratda I.Xidiraliyevning ayoli, o'g'li Akbar, qizi Mahfiratxon – o'qituvchisining quchog'ida

ANGLIYA BILAN MUZOKARADA

Inomjon Xidiraliyev 1922-1923-yillarda Butun - Turkiston oqsoqoli – Turkiston ASSR Markaziy ijroiya qo'mitasining raisi lavozimida sermazmun faoliyat ko'rsatgan. U Turkiston, Buxoro va Xorazm Respublikalarining iqtisodiy imkoniyatlarini birlashtirish zarurligini anglagan milliy arboblardan edi. 1923-yil martida Toshkentda uchchala Respublikadan vakillar qatnashib, O'rta Osiyo iqtisodiy kengashi tashkil etilgan. Bu kengash Turkiston, Buxoro, Xorazm Respublikalari xalq xo'jaligini muvofiqlashtirish va rivojlantirishda ijobiy rol o'ynagan. RKP (b) Markaziy qo'mitasi siyosiy byurosi Buyuk Britaniya hukumati bilan muzokara olib borish uchun X.Rakovskiy boshchiligida delegatsiya tarkibini muzokara olib borish uchun X.Rakovskiy boshchiligida delegatsiya tarkibini tasdiqlagan (M.M.Litvinov, M.Radchenko, N.Shvernik, M.Preobrajenskiy, M.Tomskiy, A.Sheynman, I.Kutuzov, F.Rotshteyn, I.Jitkov, B.Stomonyanov, I.Xidiraliyev). Delegatsiyaning bu tarkibini siyosiy byuro, shaxsan Stalin tasdiqlagan. Uning tarkibida I.Xidiraliyev bo'lganligi Stalin va uning munosabati ijobiy bo'lganligidan nishonadir. Sovet vakillari 1924-yil 9-aprelda Londonga yetib kelishadi. ▶

Ularni Angliyaning rasmiy kishilari, Tashqi ishlar vazirligi, rus departamenti direktori Grigoriy va sovet vakillari Berzin, Gitnerlar kutib oladilar. 11-aprelda sovet va chet el matbuotida SSSR delegatsiyasi a'zolari suratlari e'lon qilinadi. Unda Xidiraliyev SSSR va Turkiston ASSR Markaziy ijroqo'mi a'zosi, RSFSR Yer ishlari federal qo'mitasi prezidiumi a'zosi sifatida delegatsiya tarkibiga kiritilganligi qayd etilgandi.



London shahrining Lankaster rayonidagi mehmonxonada tushilgan surat, (o'tirganlardan chapdan birinchi Inomjon Xidiraliyev)

Angliyaning yirik nashri – «Tayms»ning 11-aprelsonida «Angliya-Sovet konferentsiyasi» haqida xabar e'lon qilingan. Unda bolsheviklar vakillari Londonning Lankaster-Geyt rayonidagi «Albaniya» mehmonxonasida joylashgani aytilib, sovet vakillaridan I.Xidiraliyev, M.Preobrajenskiy, M.Tomskiy, M.Radchenko va Angliya rasmiy kishilarining birgalikda tushgan surati bosilgan. G'arb matbuotida sovet vakillari tarjimai holidan ayrim lavhalar berilgan. «Tayms» gazetasi I.Xidiraliyevning sovet delegatsiyasi tarkibiga kiritilishi bolsheviklarning navbatdagi ayyorligidir, bu bilan ular Angliyada SSSRdagi milliy masalani maqtashni, targ'ib etishni maqsad qilganlar, deb yozadi. Londonda chiqadigan mahalliy konservativ gazetalardan biri I.Xidiraliyevning suratini ham chop etib, uning Londonga kelishi yaxshi, ammo u Sovet Ittifoqida sovetlar hokimiyati musulmonlarga vahshiylarcha munosabatda bo'layotganligini

hech kimga ayta olmasligi yomondir, deb yozgan edi. Londondagi uchrashuvlardan birida diplomatlardan biri I.Xidiraliyevni sinab ko'rmoqchi bo'lib ingliz tilini bilasizmi, deb so'ragan, u o'zining 6 ta tilda bemalol gaplasha olishini ta'kidlagan. Londondan qaytib kelgach, bu elchi bilan bo'lgan muloqotni samarqandlik do'sti Mirzaxo'ja O'rinxo'jayevga aytib bergan. Mirzaxo'ja O'rinxo'jaev 70-yillarda Andijonga kelib, do'sti Xidiraliyevning qizi Mahfiratxon aya bilan uchrashganda o'sha epizodni shunday hikoya qilgan: **«...Xidiraliyev savolga tutgan elchiga qarata mendan oz bilarkansiz degan, elchi siz nechta tilni bilasiz deb so'raganida 11 tilni – o'zbek, rus, ingliz, qirg'iz, qozoq, turkman, ozarbayjon va hokazolarni bilishini aytgan. Shunda diplomat uzr so'rab, 11 tilni bilishning o'zi bo'lmaydi degan».**

London gazetalarida sovet vakillari orasida musulmon, o'zbek bo'lgani, uning rasmi bosib chiqarilishi Buyuk Britaniyadagi bir qancha Sharq mamlakatlari diplomatlari, jurnalistlari, London va uning atrofidagi qishloqlar masjidi muftiysi va imomlarini qiziqtirib qolgan. Bu haqda I.Xidiraliyev «London taassurotlari» nomli rus tilida e'lon qilingan maqolasida bayon etgan. Misrning «Nil vodiysi» gazetasi vakili Muhammad Najib Xidiraliyev bilan suhbatlashadi. Oradan bir necha kun o'tgach sovet delegatsiyasining ayrim a'zolari I.Xidiraliyev boshchiligida hind millioneri Jevanji taklifiga ko'ra ziyofatda ishtirok etdilar. Jevanji to'la ma'nodagi sodiq ingliz-hind fuqarosi vasavdogarlar orasida g'oyat katta martabaga ega, o'ta ishbilarmon edi. Ziyofatdan so'ng hind sav-dogarlariningahvoli va ularning ingliz kapitali bilan o'zaro munosabatlari haqida suhbat qizidi. Suhbatda Jevanji hind savdo-sotiq dunyosining Turkiston bilan bog'liq masalasini ko'tarib, hind kapitalini SSSRda qo'llash shart-sharoitlarini qunt bilan o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yganligiga sovet vakillarini ishontirdi. Bu gaplarda haqiqat bor edi. Oradan ko'p o'tmay sovet delegatsiyasi a'zolari Londonga kelgan hind delegatsiyasi bilan do'stona suhbatda bo'ldilar. I.Xidiraliyev Londonda turib O'rta Osiyoda milliy respublikalar tuzilishi haqida ilmiy,

jo'natib turadi. Albatta, sovet rahbariyatining vakili sifatida bu tuzumning har bir siyosatini oqlashga harakat qiladi, kamchiliklari haqida esa lom-mim demaydi.

Xidiraliyev o'sha hayajonli London voqealarini umrining oxirigacha unutmasdan faxr bilan eslab yurdi. Sovet vakillari Londondan «Deru lyuft» jamiyati samolyotida Smolensk shahriga keladilar. Qo'nish chog'ida aeroportda halokat ro'y berishiga oz qoladi. Lekin uchuvchining chaqqonligi va sezgirligi tufayli qurbonlar bo'lmaydi. Delegatsiya a'zolari bu yerdan poyezdda Moskvaga oshiqadilar.

FOJIA SHUNDAY YUZ BERGANDI

Moskva. 1928-yil 31-dekabr. Kremlning ro'parasidagi «Natsional» mehmonxonasida fojia ro'y berdi. Taniqli davlat va jamoat arbobi Inomjon Xidiraliyev fojiali halok bo'ldi. Bu mudhish voqea munosabati bilan «Pravda» gazetasi 1929-yil 3-yanvardagi sonida nekrologlar bosilib chiqdi. Partiya Markazqo'mining O'rta Osiyodagi bu vakolatli organidagi mas'ul xodimlar ijobiy ishlar bilan bir qatorda jiddiy xatolarga, nuqsonlarga yo'l qo'ydilar, buyuk millatchilikka berildilar, Markaz yo'l-yo'riqlarini mahalliy sharoitga noto'g'ri tatbiq qildilar, milliy kadrlarga ko'p hollarda ishonmadilar.



«Pravda» gazetasi 1929-yil 3-yanvardagi sonida nashr qilingan Inomjon Xidiraliyevning nekrologi ostidagi surati

1937-yili I.Xidiraliyevni «Xalq dushmani», «Ingliz josusi», «Vatan xoini», «Burjua millatchisi», «Aksilingilobchi» kabi tamg'alar bilan badnom qildilar. Ming afsuslar bo'lsinki, zamonning zayli tufayli ayrim nohaqliklar, bo'htonlar avj oldi. Shuning uchun ham I.Xidiraliyevning arxivi bizgacha yetib kelmagan. Xidiraliyev shijoatkor, millatparvar, xalqchil, dovyurak, vaziyatni tez fahmlaydigan, shunga asosan tadbir ko'radigan, kelajakni oldindan his etadigan, o'ziga va boshqalarga talabchan, har ishda adolatni himoya qila oladigan, odamlarga mehr bilan boquvchi, ishbilarmon inson va rahbar edi.

Fojia shu bo'ldiki, Xidiraliyev o'zining butun ongli umri va faoliyatini, kuch-g'ayratini, aql-zakovatini sovetlar hokimiyatini mustahkamlashga safarbar qilgani holda pirovardida o'zi shu hukumatning, shu tuzumning ta'qibiga uchradi. Ko'plar qatori qatag'onning o'tkir tig'i uni ham jisman yo'q qildi. Ammo minnatdor avlod Inomjon Xidiraliyevning xalq manfaati yo'lidagi, adolat va haq ish uchun kurashdagi fidokorona xizmatini hech qachon unutmaydi. Uning porloq xotirasi hozirgi va kelgusi avlodlar qalbida saqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

20 – 30 йиллардаги қатағонлар // Шамсутдинов, Р. Каримов, Ш. Ўзбекистон тарихидан материаллар : [Матн] / Р. Шамсутдинов. Ш. Каримов – Андижон, 2004. – Б. 427 – 448. ■



AXBOROT KUTUBXONA MARKAZLARIDA O'LKASHUNOSLIK BIBLIOGRAFIYA ISHINI TASHKIL ETISH



Nodira OTAQO'ZIYEVA

Izboskan tuman axborot-kutubxona markazi
axborot – bibliografiya xizmati rahbari

Аннотация: В статье автор делится опытом работы по обеспечению центра краеведческой библиографической информацией, методами и источниками пополнения краеведческих ресурсов. Кроме специального интереса к краеведческим ресурсам в статье освещаются формы и методы информационно - рекомендательной работы библиографов среди разных групп населения, которым предоставляется информация, направленная на изучение истории своего региона, освещает местные традиции и обычаи, знакомит с местными писателями и поэтами и их произведениями.

***O'zining buyuk tarixi va ajdodlariga munosib voris bo'lgan
yoshlarimizga vatanparvarlik, o'z o'lkasiga sadoqat ruxida
tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega.***

Sh.Mirziyoyev

Kitob – bilan do'st bo'lgan insonning dunyoqarashi yuksaladi, tafakkuri rivojlanadi, ezgulikka intiladi. Kitob – insonning aqliy salohiyatini oshiradi, asabiylikni tinchlantiradi, so'z boyligini ko'paytirib, muomalasini chiroyli qiladi, hayot to'siqlarini yengishiga yordam beradi. Har qanday ishga ijodiy yondashishiga olib keladi, boshqalar bilan munosabatlarda o'zini qanday boshqarishni o'rgatadi, hayrihohlikka undaydi. Tarixda yashab o'tgan ne-ne ulug' zotlar kitobga oshno bo'lib, yetuklikka erishishgan, komil inson darajasiga yetishganlar. Shu bois ular o'z esdaliklarida buning uchun kitoblardan bir umr minnatdor ekanliklarini qayta-qayta ta'kidlaganlar. Vatan tuyg'usi - Vatanga muhabbat qo'yish, unga sadoqat bilan xizmat qilish ekanini hamma tushunadi. Bugungi kunda o'lka tarixi, madaniyatiga, ma'naviy qadriyatlarga e'tibor va ularga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Ayniqsa, bilimli, har tomonlama salohiyatli yoshlarimizni o'z o'lkasiga, o'z vataniga muhabbat va sadoqat ruhida kamol toptirishda kutubxona o'lkashunoslik faoliyatining ahamiyati katta.

O'lkashunoslik o'zi nima? O'lkashunoslik - bu o'lka, uning tabiiy sharoiti, aholisi, tarixi, moddiy va ma'naviy madaniyati to'g'risidagi bilimlar majmuidir. O'lkashunoslik axborot resurslariga, o'lka hayoti, ya'ni tuman tarixiga oid kitoblar, tumandan yetishib chiqqan mashhur insonlar haqida, yozuvchi va shoirlar, yosh ijodkorlarning kitoblari, ular haqida tuzilgan kartotekalar, gazeta-jurnal maqolalari kartotekalari, tumanimiz yozuvchilarining ijodiga bag'ishlangan to'liq matnli baza, o'lkashunoslik adabiyotlarining elektron shakllari tushirilgan va tumanimiz haqida ma'lumot beruvchi boshqa sohalarni o'z ichiga olgan elektron resurslar kiradi.

Axborot - bibliografiya xizmati faoliyatida, ish samaradorligini oshirishda o'lkashunoslik ishlari alohida o'rin tutadi. Shu maqsadda izboskan tuman axborot-kutubxona markazi axborot-bibliografiya xizmati tomonidan o'lka xayotining barcha sohalari va yo'nalishlariga bag'ishlangan, tuman qishloqlari, tumanning

geografik tuzilishi, yirik inshootlari, tashkilotlari hamda o'lkaning mashhur kishilari - olimlar, yozuvchi va shoirlar, mehnat va urush faxriylari, mashhur pedagoglar va shifokorlar va boshqa soha vakillari haqida ma'lumot beruvchi "Izboskan tumanining ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy tarmoqlari kartotekasi" tashkil etilgan bo'lib, kartoteka kitobxonlar so'rovlariga tezkorlik bilan to'liq javob berishga imkon yaratishi bilan ahamiyatlidir.

O'lkashunoslik tarkibida muhim bo'g'in bo'lgan o'lkashunoslik bibliografik qo'llanmalarni yaratish ham o'lkashunoslik faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Kutubxonaga tashrif buyurgan kitobxonlarni o'lkamizga oid yangiliklar bilan yanada yaqindan tanishtirib borish, bibliografik axborot berishni ta'minlash maqsadida Izboskan tumanining kelib chiqish tarixi, tumanning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti haqida ma'lumot beruvchi, ikkinchi jahon urushi va urushdan keyin tuman qishloq xo'jaligi va ijtimoiy hayotida fidoyilik va jonbozlik ko'rsatgan qahramonlarimiz, tumanimizdan yetishib chiqqan iqtidorli insonlar, iste'dodli ijodkorlar – yozuvchilar, shoirlar, turli kasb egalari, hunarmandlari haqida "Izboskan Andijonning ko'hna go'shasi", "Izboskan darg'alari", "Qo'lidan qalamin qo'ymagan inson", "Adabiyot maydonining ijod vakillari", "Inson aziz, qadri muqaddas" nomli turli bibliografik qo'llanmalar tayyorlanib, kitobxonlar e'tiboriga havola qilinmoqda. Kitobxonlik va mutolaa targ'ibotini kuchaytirish maqsadida bir qator loyihalar ishlab chiqildi. Izboskanda diqqatga sazovor joylar, ziyoratgohlar bir qancha bo'lib, tumanning mag'rurlanishga arziri tarixi bor. "Tumanimiz tarixini o'rganamiz" loyihasi tumandagi bir qancha tarixiy obidalar, jumladan: "Mandaktepa", "Elatan" tarixiy – arxeologik ahamiyatga molik qadimiy tepalik, "Xo'ja Qambar ota" va "Oq mozor ota" ziyoratgohlari o'rganildi va bu ziyoratgohlar to'g'risida to'liq manli ma'lumotlar bazasi yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyuldagi "Siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o'rganib, targ'ib etish hamda ularning xotirasini ►

abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to'g'risida"gi PQ-270-son qarori, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi 2024-yil 24-iyuldagi 136 – son buyrug'i, O'zbekiston Milliy kutubxonasining 63 – son buyrug'i ijrosini ta'minlash, Vatan ozodligi uchun kurashgan millat fidoyilarini yoshlarga, kitobxonlarga tanishtirish, targ'ib qilinib, bu orqali kutubxonamizda o'lkashunoslik ishlarini kengaytirish maqsadida «Izboskanlik haqsizlik qurbonlari» loyihasi ishlab chiqildi. Loyihaning asosiy maqsadi sovet tuzumi davrida turli ayblar bilan siyosiy, g'oyaviy qatag'on qilingan, shahid ketgan fidoyi hamyurtlarimizning taqdiri, qismati, tariximizning bu og'ir alamli sahifalarini keng kitobxonlar ommasiga to'laligicha yetkazish.



Andijonlik tarixchi olim, tarix fanlari doktori, professor, Andijon davlat universiteti qoshidagi "Qatag'on qurbonlari muzeyi" direktori Rustambek Shamsuddinov va universitet qoshida tashkil etilgan «Qatag'on qurbonlari xotirasi» muzeyi xodimlarining ilmiy tadqiqot ishlari va o'rganishlari natijasida chop etilgan ikki qismli «Qatag'on qurbonlari xotira kitobi Andijon viloyati (1865-1991 yillar)» nomli kitobi hamda Izboskan tuman davlat arxivida saqlanayotgan "Paxtakor" gazetasining yig'ma jildlari loyihani amalga oshirishimizda asosiy manbaalardan biri hisoblanadi. Kitobda Izboskan tumani va uning qishloqlaridan qatag'on qilingan 114 nafar insonlar ro'yhati keltirilgan. Shu ro'yhat asosida o'lkashunoslik ma'lumotlar bazasini shakllantirish borasida keng ko'lamli ishlar boshlangan.

Kutubxonachi mutaxassislar Izboskanlik qatag'on qurbonlari oilalarida bo'lib, ular bilan suhbatlashib o'lkashunoslik ma'lumotlar bazasi uchun kerakli ma'lumotlar va foto materiallarni yig'ib, ularni qayta ishlab (elektron nusxalarini yaratib) AKM rasmiy kanali orqali "Izboskanlik haqsizlik qurbonlari" rukni bilan yoritib borishlik yo'lga qo'yilgan. Izboskan tumanida va uning qishloqlarida yashab, qatag'on qilingan yurtdoshlarimiz haqidagi ma'lumotlar bilan tanishib bormoqdalar. Zero, shu kunlarni orzu qilib, o'tmishda o'z xalqining erki uchun, bor kuch-matonati bilan kurashgan, fidoyi yurtdoshlarimiz haqida eslab turish, ular haqidagi ma'lumotlarni kelajak avlodga yetkazib borish biz uchun ham burch, ham sharaf.

Mahalliy joylarda keng jamoatchilikni, ayniqsa, yoshlarni o'lka haqidagi bilimlarni egallashga undovchi o'lkashunoslik adabiyotlar taqdimoti, tumanning mashhur kishilari – olimlar, yozuvchilar, shoirlar, mehnat va urush fahriylari bilan tashkil etilayotgan uchrashuv kechalar, davra suhbatlari, anjumanlar o'lkaning tanikli shaxslari, fan fidoyilari bilan aholining yaqindan tanishishiga, ularning ijod mahsulidan bahramand bo'lishlariga, o'lkaga oid adabiyotlarning raqamlashtirilib, "O'qishga tavsiya etamiz" rukni ostida markazning rasmiy kanalida berib borilishi bu resurslardan aholining barcha qatlamlari masofadan turib keng foydalanishlariga imkoniyat yaratadi.



Shuningdek bu resurslar AKM va boshqa hududiy maktab kutubxonachilari uchun tashkil etilgan "Izboskan kutubxonachilari" telegram

kanalida ham berib boriladi, bu albatta hamkorlik ishlari samaradorligini yanada oshishiga zamin yaratadi.

Zamonaviy texnologiyalarning joriy qilinishi bilan o'lkashunoslikning mazmuniy va maqsadli ishlarida ham o'zgarishlar ro'y berdi. Foydalanuvchilar axborot-kutubxona muassasalaridagi nafaqat bosma nashrlardan, balki elektron resurslar, multimedia mahsulotlaridan foydalanib, o'ziga kerakli axborotni elektron qidiruv dasturi yordamida tez va qulay topish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

O'lkashunoslik sektori tomonidan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, iste'dodli ijodkor Andijon viloyat Yozuvchilar uyushmasi mas'ul kotibi, mohir tarjimon, Qamchibek Kenja hayoti va ijodiga bag'ishlab "Boburmironing Andijonlik shogirdi" mavzusida to'liq matnli bibliografik qo'llanma ishlab chiqilib kitobxonlar e'tiboriga xavola etildi. Undan tashqari to'liq matnli biobibliografik qo'llanmalarni yaratish maqsadida tumanda yetishib chiqqan davlat va jamoat arboblari, san'at va adabiyot fan fidoyilari asarlari, maqolalari, ular haqidagi audio, video resurslaridan iborat elektron bibliografik qo'llanmalar yaratilmoqda hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-son farmonining 72-maqsadi ijrosini ta'minlash bo'yicha hududda xalqimizning ilmiy, tarixiy, madaniy va ma'rifiy merosini avaylab-asrab, nodir, alohida qimmatli va noyob nashrlarni saqlab kelayotgan, o'z shaxsiy kutubxonasiga ega tashabbuskor fuqarolar faoliyati o'rganilmoqda.



Maqsadimiz bir tomondan bundan insonlarni tajribasini ommalashtirish bo'lsa, ikkinchi tomondan tumanimiz aholisi o'rtasida kitobxonlik darajasini oshirishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda o'lka tarixini o'rganish, uni keng targ'ibot qilish, o'lkaga oid ma'lumotlar bazasini shakllantirish va undan aholining masofadan turib keng foydalanishini ta'minlash borasida kutubxonachilar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar xizmat ko'rsatish samaradorligini ortishini ta'minlamoqda.

O'lkashunoslik faoliyatini rivojlantirish uchun bu jahhada ko'proq tadqiqot ishlarini olib borilishi va ularning natijalarini ommalashtirish biz bibliograflar oldidagi eng muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Z.Berdiyeva, N.Mamatraimova, T.Zokirova .
Bibliografiya : Madaniyat, san'at va pedagogika kollejlari uchun o'quv qo'llanma / muharrir M.Zufarova . – Toshkent : O'qituvchi, 2013. – 208 b.

Kutubxonalarning o'lkashunoslik ishi: Metodik qo'llanma / Tuzuvchi: H.Mamatraimova.–Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2003.- 41 b.

Soliev. A *Izboskan tarixi : [1917 -1991 yillarda tuman tarixi] / muharrir G. Karimova ; A. Soliev.- Toshkent : O'zbekiston, 1993-112 b.*

Jalilov S. Komil A. *Izboskan va izboskanliklar : Ona diyorumizning o'tmishi va bugungi hayotidan lavhalar / S.Jalilov. A. A.Komil. -Tosshent : VEKTOR-PRESS nashriyoti, 2007.-224 b. ■*

Bu yil buyuk o'zbek shoiri, mutafakkir, tarixchi, davlat arbobi, boburiylar sulolasi asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 542 yilligi nishonlandi. jahon tamaddunida munosib iz qoldirgan, O'rta asrlar Sharq Rennessansi rivojiga ulkan hissa qo'shgan bobokalonimiz Mirzo Boburning milliy ma'naviyatimizning bebaho gavhariga aylangan ilmiy-adabiy merosi va murakkab kechgan hayoti bilan yaqindan tanishtirish maqsadida Bobur nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazi va tuman, shahar axborot-kutubxona markazlari tomonidan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, videoroliklar, buktreyler va chellenjlar tashkil etilib, o'tkazildi.

**“AJDODLARIMIZ MEROSINING MA'NAVIY-
MA'RIFIY TARAQQIYOTDAGI O'RNI”**



Bobur nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi, Andijon davlat universiteti va Andijon pedagogika instituti bilan hamkorlikda Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiga bag'ishlab adabiy anjuman o'tkazildi. Anjumanda ishtirokchilar ajdodlarimiz merosining ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotdagi o'rni, Navoiy va Bobur ijodi turkiy adabiyotning eng yuksak cho'qqisi ekanligi, oradan besh asrdan ortiq vaqt o'tsada ulug' mutafakkir bobolarimizning boy ma'naviy merosi butun dunyoni hayratga solib kelayotganligi haqida ma'ruza qildilar. Mutaxassislarining ma'ruzalaridan ilhomlangan 7553-harbiy qism askarlari, Andijon davlat pedagogika instituti talabalari, Andijon shahar Prezident maktabi va Al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashgan maktab o'quvchilari o'zlari yod olgan ruboiy, g'azallari bilan chiqishlari tadbirga o'zgacha shukuh bag'ishladi. Tadbir doirasida markaz jamg'armasidan joy olgan adabiyotlar asosida kitob ko'rgazmasi tashkil etildi. Unda Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiga oid 82 nusxa adabiyotlar tavsiya etildi.

“BIZ BUYUKLAR AVLODIMIZ” MAVZUSIDA ADABIY KECHA:

Tadbir Bobur nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazida shahardagi “Iqro” xususiy maktabi bilan hamkorlikda o‘tkazildi. Tadbirda o‘quvchilar Mirzo Bobur hayotidan parchalar namoyish etib, g‘azal va she‘rlaridan namunalar o‘qib eshittirdilar.

Tadbir doirasida Mirzo Bobur hayoti va ijodiga oid 38 nusxa adabiyotlar asosida adabiyotlar ko‘rgazmasi tashkil etilib, ishtirokchilarga o‘qishga tavsiya etildi.



“BOBURSHUNOSLIKDAGI YANGI YUTUQLAR” MAVZUSIDA DAVRA SUHBATI:

O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi viloyat bo‘limi bilan hamkorlikda o‘tkazilgan tadbirda Qo‘rg‘ontepa tumani 9228-harbiy qism askarlari, viloyatdagi maktab kutubxonachilari hamda 10-, 31-, 44- umumta‘lim maktablarining o‘qituvchi va o‘quvchilari ishtirok etdilar.

Tadbir davomida O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi a‘zolari, taniqli adiblar Farid Usmon, Durbek Qo‘ldoshev, Cho‘lpon jamg‘armasi raisi Orifjon Meliyevlar so‘z oldilar va Bobur hayoti va ijodiga bag‘ishlangan asarlarining yaratilish tarixida qanday manbalardan foydalanganliklari va izlanishlari natijasida topilgan qiziqarli ma‘lumotlar haqida so‘zlab berdilar.

Tadbir doirasida markaz jamg‘armasida mavjud Mirzo Bobur hayoti va ijodi yoritilgan adabiyotlar asosida kitob ko‘rgazmasi tashkil etildi. Ko‘rgazmadan joy olgan 29 nusxa adabiyotlar ishtirokchilarga o‘qishga tavsiya etildi.



“VATAN SOG‘INCHI BILAN YASHAGAN BOBUR”
MAVZUSIDA SUHBAT:

Shahrimizdagi 30-umumta‘lim maktabi o‘quvchilari uchun adib Durbek Qo‘ldoshevning “Imperatorning tug‘ilishi” kitobi asosida suhbat o‘tkazildi. Mazkur kitobda Zahiriddin Muhammad Bobur bobomizning Andijon zaminida kechgan baxtli bolalik davri chiroyli tarzda ochib berilgan bo‘lib, uni o‘qigan o‘quvchida bir dam bobomiz davrida yurganday tasavvur uyg‘onishini parchalar mutolaasi bilan tushuntirib o‘tildi.

Tadbir davomida ishtirokchi o‘quvchilarga markaz jamg‘armasidan joy olgan Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi yoritilgan 22 nusxa adabiyotlar tanishtirilib, o‘qish tavsiya etildi.



“BOBUR SHE‘RIYATINING BOQIYLIGI”

Bobur nomidagi Andijon viloyat axborot-kutubxona markazi va Bagrationov nomidagi markaziy kutubxona birlashmasi o‘rtasida xalqaro teleko‘prik tashkil etildi. Tadbirda markaziy kutubxona birlashmasi direktori Olga Alekseevna Bezova ushbu sananing ahamiyati va Rossiya va O‘zbekiston kutubxonalari o‘rtasidagi bunday madaniy almashinuvning ahamiyatini ta’kidladi.

She‘riyat kechasi Axborot-kutubxona markazi qoshidagi “Ayollar dunyosi” kitobxonlik klubi tomonidan Rossiya va Armaniston madaniy-ma‘rifiy markazlari hamda Andijon shahridagi 24 va 43-umumta‘lim maktablari, Buloqboshi 4-maktablari bilan hamkorlikda o‘tkazildi.



Тайёрловчи: Илмий-методика хизмати раҳбари
Дилафруз Каримова



MUALLIFLAR DIQQATIGA!

“BOBUR KUTUBXONASI” JURNALIDA MAQOLALARNI CHOP ETISH SHARTLARI

Chop etish uchun yuborilgan material yangi va boshqa nashrlarda chop etilmagan bo'lishi hamda jurnal yo'nalishiga mos kelishi kerak.

Tahririyat material jurnal yo'nalishiga mos kelishi to'g'risida mustaqil qaror chiqaradi va chop etishni rad qilish sabablarini tushuntirmaslik huquqiga ega.

Mualliflar to'g'risida ma'lumotlar:

Ismi, familiyasi, otasining ismi, asosiy ish (o'qish) joyi, ilmiy darajasi va unvoni, lavozimi;

Asosiy ish (o'qish) joyining pochta manzili; telefon raqamlari va elektron pochta.

Maqolaning tuzilishi:

Nomi: o'zbek, rus tillarida 8 so'zdan ko'p bo'lmasligi.

Maqola matni:

Kirish: masala (muammo)ning qo'yilishi, dolzarbligi, maqsadi, maqolaning tuzilishini tushuntirish.

Maqolani sahifalashtirish

Shrift va hajmi: MS word (.doc yoki .docx) formatida, Arial (11 pt.) shriftida, 1,15 interval bilan. Hajmi 2-8 sahifa oralig'ida yoki 3000 dan 20000 belgigacha bo'lishi lozim. Maqoladagi ma'lumotlar qaysi manbadan olinganligi (ssilka) ko'rsatilishi shart.

Grafik, chizma va jadvallar: Excel formatida, suratlar *.jpg, *.png formatida alohida faylda yuborilishi shart.



ПРИГЛАШАЕМ К СОТРУДНИЧЕСТВУ

Нашим автором может стать любой человек, профессия или увлечение которого связаны с книгой, с библиотекой.

Если вы решили отправить нам материал для размещения в журнале, то, прежде всего, необходимо проверить соответствие его следующим пунктам:

Материал представляется на одном из языков: узбекском или русском.

Он должен содержать сведения об авторе: имя, отчество и фамилию, место жительства, должность и место работы, контакт (телефон / электронная почта).

Название статьи не должно состоять из более, чем 6 слов с предлогами.

Материал не должен иметь менее 2 и более 6 страниц и быть ранее опубликованным или представленным в другом СМИ.

При обнаружении нарушения данного условия, материал снимается с опубликования.

Файл с материалом должен быть представлен в формате документа Microsoft Word, при этом рисунки и таблицы размещаются в тексте после ссылок на них, т. е. вся информация должна быть в одном файле. Статьи и другие материалы, представленные в редакцию, не возвращаются.

Шрифт текста: Arial, размер шрифта 11, межстрочный интервал 1,15.

Все страницы должны быть пронумерованы, иллюстрации, графики и таблицы расположены в соответствующих местах в тексте.

Каждый рисунок, график, таблица должны быть дополнительно представлены отдельным файлом в формате: *.jpg, *.png.



Kelgusi sonda: В следующем номере:

- ▶ Italiyaning Andijonlik qahramoni
- ▶ Я расскажу о своем отце
- ▶ XXI-asr yoshlarini kitobxonlikka jalb etish
- ▶ Kitobxonlar qiziqishini o'rganishning ahamiyati, umumiy talablari va usullari

